

MAKTAB

NOMI

EMAIL

TELEFON

Ota-onalar uchun
tezkor raqam: 412-529-
HELP (4357)
www.pghschools.org

30-avgust, 2022

Hurmatli ota-onalar va vasiylar:

2018-yilda qabul qilingan 158-sonli qonun (158-sonli qonun) Pensilvaniya shtatining uchta yakuniy Keystone imtihonini (algebra I, adabiyot va biologiya) topshirish talabi uchun muqobil variantlarni taqdim etadi; bundan ko'zlangan maqsadi o'quvchilarning shtat bitiruv talablarini bajara olishidir. Bu xat 158-sonli qonun va 2017-yilda qabul qilingan 6-sonli qonunning (6-sonli qonun) kuchga kirishi munosabati bilan yo'l-yo'riq ko'rsatish uchun mo'ljallangan; ushbu qonunlarda Karyera va texnik ta'limga (CTE) ixtisoslashgan o'quvchilar uchun shtat bitiruv talablarini bajarishning muqobil yo'llari belgilab berilgan.

Pittsburg davlat maktablarini (Pittsburgh Public Schools) 2023-yilda bitiradigan sinflaridan boshlab, o'quvchilar to'rtta qo'shimcha usulning biri orqali oliy ta'limni olishga tayyorligini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladi; bu usullar oliy ta'lim olish, karyera va ijtimoiy munosabatlarga tayyor ekanlikni yanada to'liqroq aks ettiradi.

Keystone imtihonlari ham davom etadi – ulardan Pensilvaniyada "Har bir o'quvchi muvaffaqiyatli natijasi haqida"gi federal qonunda belgilangan javobgarlik talablariga rioya qilish uchun foydalaniladi. Endilikda o'quvchilardan shtat bitiruv talablarini bajarish uchun Keystone imtihonlarini topshirish talab etilmasa-da, o'quvchilar federal javobgarlik maqsadlari yuzasidan Keystone imtihonlarini topshirishi lozim. Bu imtihonlarni topshirish Mahalliy ta'lim agentligi (LEA) va maktabning ishtirok reytingiga salbiy ta'sir qiladi.


2023-yil va undan keyin maktabni bitiruvchi o'quvchilar uchun yuqori sinf maktablarini bitirish talablariga javob berishning 5 ta usuli mavjud:

- Keystone malakasi
- Keystone jamlanmasi
- Karyera va texnik ta'lim (CTE) konsentratori
- Muqobil imtihon
- Dalilga asoslangan

158-sonli qonun haqida quyidagi havola orqali batafsil ma'lumot olishingiz mumkin: education.pa.gov.

Pittsburg davlat maktablari ma'muriyati, maktab maslahatchilari, o'tish yuzasidan maslahatchilar, o'qituvchilar va boshqa xodimlar shtat miqyosidagi yuqori sinflar maktabini bitirish talabiga javob berish uchun o'quvchiga eng mos usulni tanlashda yordam berish maqsadida har bir o'quvchi bilan yaqindan ish olib boradi.

Tashakkur,



Dr. Rodney Necciai,
O'quvchilarga yordam
xizmatlari bo'limi boshlig'i
yordamchisi

Para asistencia con este documento en español, por favor llame a la línea nueve al 412-529-6463 y seleccione la opción #1.

यदि दस्तावेज सम्बन्धी सहायताको निम्ती कृपया नाइन लाइन नम्बर (४१२)५२९-६४६ मा फोन गरी अंक # २ चुन्नु होला।

Kwa msaaada kwa nyaraka (document) hii, katika Swahili, tafadhali piga namba ya tisa 412-529-6463 tisha chaguzwa uchaouzi la #3.

如需获得本文件的中文帮助，请拨打电话 412-529-6463 致电九号线，并选择选项 #4

حصول على المساعدة باللغة العربية، إنضموا إلى #5

Уточнить получить помощь по этому документу на русском языке, пожалуйста позвоните на Девятую Линию 412-529-6463 и нажмите #8.

The Pittsburgh Public Schools does not discriminate on the basis of race, color, age, creed, religion, sex, gender (including gender identity or expression), sexual orientation, ancestry, national origin, marital status, pregnancy, or disability in its programs, activities or employment and provides equal access to designated youth groups. Inquiries may be directed to the Assistant Superintendent of Student Services at 341 S. Bellefield Avenue, Pittsburgh, PA 15213 or (412) 529-HELP (4357).